

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA
O'TKAZILADIGAN DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING
MAQSAD VA VAZIFALARI**

**JDPU sirtqi bo`lim o`qituvchisi
Ahunbabayeva Sh. Sh.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan didaktik o'yinlar orqali mashg'ulotlarining tuzilishi va mazmuni haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: mashg'ulot, ta'lim o'yin, aqlan yetuk, ma'naviy boy, har tomonlama rivojlangan, tug'ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoj, , milliy va umuminsoniy qadriyatlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается структура и содержание их обучения посредством дидактических игр, проводимых в дошкольных образовательных организациях.

Mustaqil O'zbekistonning kelajakda buyuk davlat sifatida jahonga yuz tutishini ta'minlash hozirgi yosh avlodning zimmasiga tushishi tabiiy. Unda albatta maktablarimiz hayoti va ta'lim oluvchilarni qay darajada kelajak uchun ishonarli vakil bo'layotganliklarini hisobga olish zaruriydir. Shuning uchun ham mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi, ularni o'qishi, sog'ligi va boshqa bir qator sohalarga juda katta e'tibor berilmoqdaki, bunday sa'y-harakatlar zamirida kelajak vorislarini chinakam poydevor, mustahkam ustun bo'lishlarini kafolatlanishi yotadi.

Jumladan, ta'lim sohasidagi o'zgarishlarni oladigan bo'lsak "Ta'lim to'g'risida"gi va Maktabgacha ta'lim va tarbiya Qonunni qabul qilinishi "Uzluksiz ta'lim tizimi" joriy etilishi fikrimiz dalilidir. Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, unga yangicha yondoshuv, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qitishning yangi loyihasi – yangi pedagogik texnologiya vositalari asosida o'qitish, ta'lim berish usullarini o'zgartirish, boladagi fikrlash qobiliyatini tezroq o'stirib rivoj-lantirish, undagi intellekt va iste'dod, salohiyatni tezroq aniqlash, dars jarayonini bevosita bir yirik asar, mustahkam g'oyaga erishish uchun kurash darajasiga etkazish hozirgi davrdagi muhim va dolzarb masalalardan bo'lib turmoqda.

Ta'lim bosqichlaridan integrativ, o'yinga asoslangan ta'lim texnologiyalariga beriluvchanligi bilan ajralib turadi. Aslida, bu holat Kollej texnikum o'qituvchisining xarakteri, dunyoqarashi, olamni uyg'un va obrazli tarzda

ifodalashga moyil tafakkur tarzidan kelib chiqadi. Pedagogika dars muddati, belgilangan tanaffuslar, o'qituvchini diqqat bilan tinglash zarurati va hokazolar.

Ta'limning o'yinli faol texnologiyalari aynan shu muammoni hal etishga qaratiladi. Ushbu texnologiya zamirida talabani maktab ta'lim-tarbiyasiga hadiksirab qarashdan, o'qituvchi ko'rsatmalarini aynan takrorlashdan halos etish, uning ta'lim jarayonining faol sub'ektiga aylantirish g'oyasi yotadi.

Bunda ko'rsatmali illüstrativ metod darajasidagi ta'lim jarayoni amalga oshadi. Unda muammoli, qisman izlanuvchanlik, tanqidiy, mantiqiy yondoshuv, tahlil kabi metodlari ta'limning etakchi uslubiga aylanmay qoladi. Mazkur holatni oldini olish uchun, talabalarni ongli o'quv faoliyatiga jalb qilish uchun, undagi mantiqiy, tanqidiy hamda mustaqil fikrini o'stirish uchun o'yin texnologiyasiga asoslangan ta'lim metodini qo'llash samaralidir. Shunda yuqoridagi muammolar echimi topiladi. Barcha davrda ta'limning asosiy muammosi talabani o'ziga jalb eta olish, uni qiziqtirish, hayajonga solish, faoliyatidagi muhim o'rinni egallash bo'lib, o'qituvchi uchun o'ta muhim muammo ham aynan shular bo'lgan. maktabgacha ta'limda esa ushbu masalani hal qilish jiddiy tus olib echilishi zaruriy muammolardan hisoblangan. Chunki, bolani darsga qiziqtirib olish, berish lozim bo'lgan bilimni uni ongiga etkaza olish, bolani hayotga tayyorlash, uni o'ylashga, tafakkur qilishga o'rgatish ayniqsa maktabgacha ta'limda qiyin va ancha mashaqqat talab qiluvchi jarayondir. SHuning uchun ham ba'zi o'qituvchilar o'quv faoliyatini o'yin texnologiyasidan foydalanadilar.

Rus metodistlari E.F. Bugrimenko va G.A, TSukermenlar boshlang'ich ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan o'yin texnologiyasini 2 turga bo'ladilar.

1. Ko'ngilochar o'yinlar.
2. Ta'lim beruvchi o'yinlar.

Olimlarning haqli ravishda uqtirishlaricha, ta'lim jarayonida ko'pchilik o'qituvchilar tomonidan qo'llanilayotgan o'yinlar har doim ham faol bilim olishga yo'naltirilavermaydi. O'qituvchilar ba'zan bolalarga dam berish, ulardagi charchash oldini olish, sinfda ko'tarinkilikni tashkillash maqsadida hordiq beruvchi o'yinlardan foydalanadilar. Albatta bunday ko'ngilochar o'yinlar talaba faoliyatida katta ahamiyatga ega. Bu esa tashkilotchilik, birdamlikka intilish, do'stlik, o'zgalarga yordam berishga tayyor turish kabi ijobiy tuyg'ularning rivojlanishida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday o'yinlarni aksariyat talabalarda charchoq kuzatilganda, aqliy zo'riqishning oldini olish maqsadidagina qo'llash zarur. Odatda tajribali pedagoglar o'z darslarida o'yin elementlari aralashgan dam olish daqiqalarini xuddi shunday maqsadda oqilona takomillashtirib boradilar.

Didaktik o'yinlarga qo'yiladigan talablar esa birmuncha jiddiyroq. Ular bevosita ta'lim maqsadiga xizmat qiladi. Bu o'yinlar bolalarning aqliy riqojlanishida, ularni bilishga undashda, mantiqiy tafakkur qilishda, birmuncha afzalliklarga ega. Bunda talabadagi bilim olishga ishtiyoq, izlanuvchanlik, sinchkovlik, topqirlik va ziyraklik hislatlarini shakllantirish va rivojlantirish osonlashadi va keng yo'lga qo'yiladi. Bu o'yinlar o'qituvchi tomonidan o'quv tarbiyaviy maqsadlar uchun maxsus tashkil qilinadi. Ta'lim uchun xizmat qiladigan ma'lumotlarni o'zlashtirishga qaratilgan o'yinlar talabada nazariy bilimlarni shakllantirish kerak. Yangi abstrakt mavhum tushunchalarni talaba obrazli hissiy qabul qilishga erishishi zarur.

Demak, o'qituvchi darsda o'yinlarni qo'llar ekan uning didaktik va ko'ngilochar turlaridan qay darajada foydalangani, me'yorini, o'rnini, vaqtini bilishi lozim. Darsda didaktik o'yin unsurlarini qo'llash o'quv materialini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf qiladi. Ko'rish va eshitishga oid faoliyat turi bilan bog'liq ko'rgazmali vositalar, qiziqarli savollar, hazil topshiriqlar, kutilmagan vaziyatlar talaba aqliy faoliyati samaradorligini ta'minlaydi.

Hozirgi sharoitda mustaqilligimiz sharofati bilan har bir sohadagi ko'zga ko'rinarli o'zgarishlar, e'tibor, har bir bajarilishi lozim bo'lgan talablarni olib qarasak biz pedagoglar ham ayniqsa, kollej ta'limini alohida e'tiborga olishimiz, poydevorni mustahkam qurishimiz, o'z ustimizda ishlashimiz va yangi davr boalari, kelajagimiz vorislarini zamon talablari asosida tarbiyalashimiz, ta'lim berishimiz bosh maqsadimiz bo'lmog'i lozim ekan. Hozirda kollejlar-texnikum, o'quv muassasalarini yaxshilash, undagi ta'lim-tarbiya jarayonini, mazmunini buzmaganda holda yangicha usulda, yangi pedagogik texnologiya vositalari asosida olib borishga katta ahamiyat berilmoqda. Darsda nafaqat o'yinli texnologiyalardan foydalanish balki, shu asosda darsda innovatsion hamda integratsion ta'lim metodlaridan foydalanish, bola tafakkurini kengaytirish, bolaga bilimni puxta va hayotiy voqealar asosida berish. Ularni yangilikka intilishlarini qondirish, hattoki, yil davomida berilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalardan ko'proq narsani egallashlariga erishish, bolani ijodkor, talabchan, hozirjavob, fikrlash qobiliyatini o'stirish kabi masalalarni hal qilish uchun xizmat qiladi.

Innovatsion ta'lim metodi – yangilik kiritish, noan'anaviy ta'lim metodlaridan, usullaridan foydalanish, yangi usul va metodlarni tadbiq qilish kabilar bilan ta'riflanib, "innovatsion" inglizcha "in" – "yangi" "vatsion" – "kiritish" "tadbiq etish" degan ma'nolarni anglatadi.

Innovatsion ta'lim usullari – an'anaviy boshqarilayotgan ta'lim tizimiga nisbatan pedagogik jarayonlar amaliyotida o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Sababi, an'anaviy usullarda boshqarilayotgan ta'lim mazmuniga ko'ra talabalar dars jarayonida passiv ishtirok etadilar. O'qituvchining ma'ruzasini tinglab, aytganini eshitib qabul qiluvchi – informator rolini o'ynaydi. Innovatsion hamda noan'anaviy ta'lim usulida esa barcha talaba faol ishtirok etadilar. Jumladan, innovatsion ta'lim usullari asoslari “aqliy hujum” – o'qituvchi tomonidan berilgan savolga talabalar birin ketin javob berishlari.

“**Modifikatsiyalashgan ta'lim**” – shakli o'zgartirilgan ma'ruza. O'qituvchi talabalar bilan muloqot tarzida savol-javob, baxs-munozara orqali dars o'tadi.

“**Ileprovizatsiya**” – tayyorgarliksiz bayon etish. O'qituvchi tomonidan berilgan savol yoki topshiriqlarga tayyorgarliksiz, dab-durustdan, to'satdan talabalar o'z fikrlashlaricha javob berishlari.

“**Multimediya**” – “videodasturlar bilan dars o'tish”. Ma'lum bir mavzuni dasturli, ovozli, ko'rgazmali, televizor, video qurilmalari yordamida dars o'tish usuli.

“**Muayyan vaziyat yoki holatni tahlil qilish**” – biron-bir hayotiy voqea, vaziyat, hodisalarni o'rganish tahlil qilish to'g'ri xulosa chiqarish.

“**Tanqidiy tafakkur**” – talabalar o'qituvchining bergan savollariga bir-birini takrorlamagan holda, tanqidiy yondoshib fikrlarini bildiradilar.

Innovatsion texnologiyani kiritishdan maqsad talabani har tomonlama zukko, uning har bir qirrasini ochib berish va undagi turli qobiliyatlarni aniqlash hamda boladagi fikrlash, tafakkur qilish, nutqini o'stirish kabi qobiliyat va sifatarni takomillashtirish ekan. Hozirgi kundagi ta'lim sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish va rivojlantirishga qaratilgan e'tiborni kuchaytirib, uni amalga bajarilishini amalga oshirilishiga ishonch hosil qiladi. Ana shu maqsadni ko'zlab ta'lim jarayonini talaba ongiga to'laligicha etib borishini ta'minlash, ayniqsa, talabalarini bilimni oshirish, boyitish, mantiqiy o'ylashga, izlanishga, har bir masalaga jiddiy yondoshib sinchkov bo'lishga, ziyraklik, topqirlik, uddaburon hamda e'tiborli bo'lishlari uchun darsda talabani zerikmasligini ta'minlash eng muhim jihatlardan biridir. Bundan tashqari talaba darsda faqat tinglovchi yoki qabul qiluvchi emas, balki u bevosita ishtirokchi, erkin shaxs, mustaqil fikrlovchi, tanqid qiluvchi, haqiqiy hozirgi zamon talabasi bo'lishi hozirgi talablardan bo'lib turgan bir paytda, roqoridagilarni amalga oshirishni yo'lga qo'rovchi qulay hamda hammabop usul va metodika zarur bo'ladi. Buning uchun pedagogika darslarida didaktik o'yinlarni qo'llashni ko'rib o'tmoqchimiz.

Ko'ngilochar o'yinlar hamda ta'lim beruvchi o'yinlar har ikkalasi ham hozirgacha va hozirda amal qilinib necha yillar mobaynida qo'llanilib kelindi.

Biz taqdim qiladigan o'yin har bir gurux uchun yosh hususiyatlari bo'yicha

taqsimlangan bo'lib, unda ham ko'ngilochar, ham ta'lim beruvchi, hamda talabadagi mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, topqirlik, ziyrak va kuzatuvchanlik, e'tiborlilik, sinchkovlik kabi fazilatlarni tarbiyalovchi maqsadlar ham amalga oshadi.

Ma'lumki, darsda talabalar atrof muhit va hayotda bo'layotgan voqea-hodisa va o'zgarishlarga juda qiziqib, ularni o'z idroklari darajasida qabul qilib, ularni mohiyati, uzaga kelish sabablari haqida hali o'ylashga odatlanmagan bo'ladilar.

Ulardagi "yaxshi" va "yomon" haqidagi dastlabki tasavvurlar atrof-muhitning tashqi sifatlarini solishtirish, taqqoslash natijasida uzaga kela boshlaydi. Ta'kidlash lozimki, aslida talabalarga taqqoslay olish, solishtirish va uning natijasida to'g'ri xulosaga kelishni o'rgatish bu o'qitishning bosh maqsadidir.

Bu omil talabalarning mantiqiy fikrlarini o'stirishga katta yordam beradi. Buning uchun biz darsda hayotiy, voqeaviy savollardan tuzilgan, muammoli o'yin variantlarini qo'llash orqali erishishimiz mumkin.

Buvaylo qishlog'idagi bir maktabning o'qituvchisi haqida mashhur ingliz yozuvchisi Dik Frensisning "Favorit" nomli asarida shunday deyilganini guvohi bo'lamiz. Unda shunday deyiladi. O'qituvchi matematika o'qituvchisi bo'lishiga qaramay juda ko'p vaqtini talabalarga kichik ma'lumotlardan eng to'g'ri xulosalar chiqarishga, o'z fikrlarini bayon etishlariga o'rgatish uchun sarflagan. O'rta muammo tashlab uni atroflicha ko'rib chiqishga, muammoni hal qilishda unga har tomonlama yondoshishga, salbiy va ijobiy jihotlarini ko'rib chiqish, uni ochishga o'rgatishga harakat qilgan o'qituvchining bu usuli doim bolalarga zavq berardi. Darsdagi baxs-munozaralar, tortishuvlar huddi Sherlok Xolms muammolariga o'tib ketardi. U bolalarni sinfdan-sinfga shunday tarbiyalab borganki, talabalardagi kuzatuvchanlik, sinchkovlik, topqirlik va fikr-mulohaza ioritish kabi xususiyatlar kuchayib, ular hatto odamlarni qo'l qadoqlari-ю, qadam bosishlari, barcha tevarak-atrofga qarab uning egasi, voqea-hodisa haqida baxs iorita oladigan bo'lishgan. SHu bilan birga boshqa predmetlarga ham, har bir narsaga e'tibor bilan qaraydigan, hech bir narsani e'tibordan chetda qoldirmaydigan, ularga ziyraklik bilan yondoshib, hayotda qo'l keladigan ko'p yaxshi sifatlarini o'zlarida shakllantirishga muvaffaq bo'lganlar. Ularda loqaydlik, beparvolik, "menga nima" degan salbiy xususiyatlar butkul yo'qolgan. SHunday ekan, talabalarga kuzatish va taqqoslash asosidagi xulosa bilan fikr iorita olishlariga erishish yoshlarga ko'p qirrali bilim berishda muhim o'rin tutadi. Lekin talabalarda bunday xususiyatlarni shakllantirish usullari ko'p va xilma-xilligiga qaramay hamma vaqt ham tezda yaxshi natijalarga erishib bo'lmaydi. Chunki, boladagi qiziquvchanlik etarli

bo'lmasa, bu ishga qancha ko'p vaqt sarflagan bilan maqsadga etishish qiyin. SHuning uchun ham aynan bolaning qiziquvchan sohalarini topib, o'yin va baxslar asosida o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. Toshkent sh., 2020 yil 23 sentyabr, O'RQ-637-son.
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida Qonun. Toshkent. sh., 2019 yil 16 dekabr, O'RQ-595-son
3. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti Toshkent sh., 2020 yil 22 dekabr, 802-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini to'plami. – T., 2017. – B. 39.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi PF-5264-son "O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlantirish vazirligini tashkil etish to'g'risida" gi Farmoni. www.lex.uz: